

O'QUVCHILARGA GAP USTIDA ISHLASHNI O'RGATISH USULLARI

Qahramonov Aliboy Yolgoshovich

Filologiya fanlari nomzodi, ISFT instituti katta o'qituvchisi

Uruskulova Nasiba

O'rolova Faxriniso

Ibragimova Shaxina

ISFT instituti Boshlang'ich ta'lif fakulteti 3-kurs talabalarini

Annotatsiya: Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'rni, o'z vazifikasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Ushbu maqolada o'quvchilarga gap ustida ishlashni o'rgatish usullari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: gap, so'z, nutq, mazmun, darslik, ta'lif, ona tili, Grammatik, savod, savol, qo'shimcha, izoh.

Boshlang'ich ta'lifning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Boshlang'ich sinflar ona tili kursini o'rganishning yetakchi insoniy tamoyili

tilning barcha tomonlarini (leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, so'z yasalishi) o'zaro bog'liq holda o'rganish hisoblanadi. Mazkur tamoyil tilni yaxlit hodisa sifatida o'rganishni ta'minlaydi va til kishilarning aloqa vositasi ekanini o'quvchilar tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bu tamoyil bo'limlar orasidagi mumkin bo'lgan bog'lanishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Fikr almashish, aloqa-aratashuv gap vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun ham gapni o'qishga, gap tuzishga, gap mazmunini aniqlashga, gapni to'g'ri yozishga oid amaliy bilimlar savod o'rgatish davridan boshlab shakllantiriladi.

O'quvchilarda nutq, uning og'zaki va yozma shaklda bo'lishi, nutqning gaplardan hosil bo'lishi va gap haqida amaliy tushuncha darslikdagagi mazmunli rasmlar asosida hosil qilinadi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarning ona tili dasturida gap ustida ishlash markaziy planga chiqarilgan. Gap mazmun va grammatik jihatdan bog'langan so'zlardan tashkil topadi. So'zning ma'nosi esa nutq jarayonidagi gapda aniqlanadi. Bog'lanishli nutqqa oid mashqlarga qo'yiladigan talablar gapning qurilish materiali - so'z ustida ishlashga ham taalluqlidir.

Ona tili darsliklarida gap ustida ishlash uchun yetarlicha material bor. Bu materiallar asosida o'quvchilar gapni to'g'ri tuzishga o'rgatilishi lozim. Gapning ifoda etilishiga ko'ra gap qurilishi ustida ishlash o'quvchilarning fikrlash, mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi, qobiliyatlarini o'stiradi.

Ma'lumki, o'zbek tili lug'atidagi ko'pgina so'zlar ko'p ma'nolidir. Ularning ma'nolari faqat gap tarkibida aniqlanadi. O'quvchi gapda so'zlarni ma'no jihatdan bog'lash jarayonida yaqin ma'noli va ma'nodosh so'zlarni taqqoslaydi, ulardan birini tanlaydi va aniq xulosaga kelgandan keyingina gapda qo'llaydi.

Gap ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. SHuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazgan ma'qul.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

Gap ustida olib boriladigan mustaqil ishlar o'quvchini sintaktik tahlilga o'rgatadi. O'quvchi turli ma'nodagi so'zlarni muayyan tartibda joylashtirib butun bir gapni tuzadi. Bunda o'qituvchi, avvalo, so'z tanlashga, ularni muayyan tartibda joylashtirish ustida ishlashga e'tibor qaratishi, berilgan bir xil so'zlarning gapda turli o'ringa joylashtirilishi gap mazmuniga ta'sir qilishini o'quvchilarga anglatishi lozim.

Ta'lim jarayonida lug'at ishi matn va gap materiali asosida uyushtiriladi. O'z navbatida, lug'at ishi – so'z ustida ishslash o'quvchini grammatik mashg'ulotga ham tayyorlaydi. O'quvchilarning ona tili xazinasidagi so'zlardan nutq faoliyatida foydalana olish, o'z nutqini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash ko'nikmalarini egallashlari uchun ta'lim jarayoniga mazmunga mos o'qitish usullarini tatbiq etish ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida berilgan namuna asosida gap tuzish, gap tuzishga doir ijodiy va konstruktiv mashqlar so'zlarning o'mini aniqlab, gapni shakllantirish o'quvchilarni o'ylashga majbur qiladi.

Alohidha berilgan so'zlarni o'z o'rniqa qo'yib, qo'shimchalar bilan biriktirib gap tuzdirish kabi konstruktiv mashqlarni bajartirish o'quvchilar nutqida kam qo'llanadigan, umuman qo'llanmaydigan so'zlarni ularning nutqiga kiritish, bu so'zlarning ma'nosiga diqqatni tortishi bilan ta'limiy ahamiyat kasb etadi. So'zlarni o'zaro bog'lab, o'z o'rniqa qo'yib gap tuzdirish o'quvchilarni bayon va inshoda so'zlarni o'z o'rniqa to'g'ri qo'yib fikrini bayon qilishga tayyorlaydi. O'quvchilarga bir xil so'zlardan tuzilgan gaplarning mazmunidagi farqlarni izohlashga o'rgatish gapda so'zlarning o'z o'rni borligini, so'zlarning tartibini o'zgartirish aytilayotgan fikrning o'zgarishiga olib kelishini fahmlash ko'nikmasini o'stiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari narsa va hodisalarini to'g'ri kuzatishlari va ulardan asosli xulosalar chiqarishi, nima haqda gapisalar tushuntirish va asoslashni bilishlari talab etiladi. O'qituvchi “nima uchun sen bunday deb o'layapsan? Bu nima ekanligini isbotlagin. Nima uchun shunday yozilishini asoslab ber” kabi savollarni har bir darsda qo'llab turishi keyinchalik yaxshi samara beradi. O'quvchilar grammatik tahlil va yozma ishlarida ko'pincha shoshilib xulosa chiqarishadi. Natijada o'zlariga zarur bo'lgan tushunchaning mavjud belgilarini unutib xatoga yo'l qo'yadilar. Xususan, qaratqich va tushum, o'rin-payt va chiqish kelishiklarini qo'llashda yo'l qo'ygan xatolarini bilimlari yetishmasligi tufayli ongli tarzda izohlab, asoslab bera olmaydilar. Tahlil tartibi o'quvchilarni fikrini tartib bilan va asoslab berishga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning hayotiy tajribalari kam bo'lgani uchun ko'pincha rasmlardan, ekskursiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilar rasmlar asosida fikrini izchil ifoda etishga o'rgatiladi. O'qituvchining savollari asosida o'quvchilar hikoyaning asosiy qismining mazmunini aniqlashtiradi.

Ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun o'quvchilarning ma'lum darajada aqliy zo'riqishlari, muayyan aqliy mehnat usullarini qo'llash talab etiladi. O'qituvchining to'g'ri va sistematik rahbarligi, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda ona tili ta'limining rolini tushunib harakat qilishi orqaligina ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. –T.: Fan, 1995.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. –T.: O'qituvchi, 1995.
3. Sayfullaeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional talqini. –T.:Fan 1994.
4. Qurbanova M. Hozirgi o'zbek tili (sodda gap sintaksisi uchun materiallar). –T.:O'zMU bosmaxonasi, 2002
5. Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: "Fan va texnologiya", 2009.
6. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. –T.: O'qituvchi, 1987
7. Mengliev B. O'zbek tilining struktur sintaksisi. –Qarshi: Nasaf, 2003.
8. Mengliev B., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2005.
9. Shahobiddinova Sh. O'zbek tili morfologiysi umumiylilik-xususiylik dialektikasi talqinida. I juz. – Andijon, 1994.
10. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –T.:O'qituvchi, 1993.
11. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T.: O'qituvchi, 1995.
12. Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbanova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. –T.: Universitet, 1995.
13. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – T.:Fan, 1982.